HASANXO'JA NISORIYNING "MUZAKKIRI AHBOB" TAZKIRASIDA BOBURIY SHOIRLAR IJODIGA MUNOSABAT

Rustamova Gulizebo Sobirovna

ANNOTATSIYA

Mumtoz adabiyotimizni, shuningdek uzoq va tarixiy yo'lni bosib o'tgan bugungi adabiyotimizni betakror va dilbar shaxs Zahiddin Muhammad Bobur va uning benazir ijodisiz tassavur qilib bo'lmaydi. Uning g'azal va roboiylari hamma davrda ham o'z muxlisini topib, o'z sehri bilan yuraklarga kirib borgan. Adabiyotimiz, shu jumladan, dunyo adabiyotida ham Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiy shahzodalarning adabiy ijodlari yuzasidan shu kunga qadar bir muncha tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, hali bu borada talaygina tadqiqotlar qilish ilm ahlining oldidagi vazifalardan bo'lib turibdi. Shu ma'noda, ushbu maqolada ham Bobur va Boburiy shahzodalarning ijodiy yo'li va shaxsiyatini Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" tazkirasida keltirilgan ma'lumotlar asosida o'rganish, umumiy fikr va mulohazalar asosida yoritish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy muhit, adabiy-tarixiy shaxslar, "Majolis un-nafois", "Tuhfai Somiy", "Muzakkiri ahbob", "Nisoriy" taxallusining ma'nosi, "Uchinchi tazkira", tazkiranavislik davomchisi, Abdullaxon Soniy.

Adabiyot maydonida dastlab Muhammad Solih, Xoja, Shayboniy, Afsariy, Vosifiy, Majlisiy, Ubaydiy, Baqoiy, Shaydo, Oshiq, Aziziy va keyinchalik esa Nisoriy, Mushfiqiy, Naxliy, Xon (Abdullaxon Ikkinchi), Mutribiy kabi yirik so'z san'atkorlari ijodiy faoliyati bilan nom qozondilar. Shu bilan birga O'rta Osiyo adabiyotida ham katta-kichik boshqa qalamkashlar adabiyotning turli janrlarida ijod qilib, o'zbek va tojik mumtoz adabiyoti tarixini boyitishga ma'lum darajada o'z hissalarini qo'shdilar. Bu adabiy doira vakillari uzoq Hindiston, Sharqiy Turkiston, Turkiya va hatto Erondagi so'z san'atkorlari bilan ham ijodiy aloqalar o'rnatgan edilar. Shu bilan birga o'z asarlarida ham mashhur ijodkorlarning ijod namunalaridan qayd qilishgan.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari asosan Husayn Boyqaro davri hamda bu asarning 1521-yili Hirotda safaviylar, 1523-yili Istambulda turk sultoni uchun qilingan to'ldirilgan tarjimalari, 1552-1560 yillar, mobaynida shahzoda Som Mirzo Safaviy yaratgan "Tuhfai Somiy" tazkirasi xurosonlik, forslik, ozarbayjonlik, hindistonlik, turkiyalik, qisman Movarounnahrlik shoirlar to'g'risida hikoya qilgan tazkiralardir. Bu tazkiralardan so'ng Shayboniylar davri va Movarounnahr adabiyotini to'laroq aks ettiruvchi hamda yuqoridagi tazkiralarning davomchisi bo'lgan shunday bir asar yaratilishi zarurati ham tug'ilgan edi. Nihoyat, bularning barchasi shoir va adabiyotshunos olim Hasanxoja Nisoriy tomonidan amalga oshirildi. 1566-yilning avgust-noyabr oylarida yozib tugallangan "Muzakkiri ahbob" ("Do'stlar yodnomasi") tazkirasida ushbu zarurat o'z ifodasini topganday bo'ldi.

"Muzakkiri ahbob" tazkirasi Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" va Navoiyning "Majolis un-nafois" asarlaridan keyingi uchinchi tazkira deb hisoblanadi. Bu boradagi ketma-ketlik Hasanxo'ja Nisoriyning o'z fikri bo'yichadir. Ushbu fikrlarni Ismoil Bekjonov asar fors tilida yozilgan bo'lsa-da, Nisoriy ushbu asari orqali O'rata Osiyada birinchi bo'lib tazkirachilik an'anasini muvaffaqiyatli davom ettirish ma'suliyatini o'z zimmasiga olganligi va bu asar zaminida

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

keyingi asrlarda yetishib chiqqan tazkiranavislarga qulay zamin yaratganligi bilan izohlaydi.[1] Asar bevosita Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" va Navoiyning "Majolis un-nafois" asari an'analarini davom ettirgan. Nisoriyning e'tiroficha, ushbu asarni yozishdan asosiy maqsadi, "… Amir Alisherning "Majolis un-nafois"idan keyin yuzaga kelgan barcha fozillarning dongdor nomlarini bir bitik qaydiga kiritib va ularning yoqimli nafaslari isini toliblarning jon dimog'iga yetkazish" bo'lgan.[2] Asar shayboniy Abdullaxon Ikkinchiga (Abdullaxon Soniyga) bag'ishlangan. Nisoriy asarni "Uchinchi tazkira" deya atarkan, bunda u o'zini "Chingiziylardan chiqqan" temuriy va shayboniy sulolalar hukm surgan mamlakat ijodkorlariga mansub tazkiranavislar ishi davomchisi sifatida biladi va shu sababli oraliq davr mobayida safaviylar, usmonli turklar uchun qilingan "Majolis" ning ilovali tarjimasi hamda Som Mirzo tazkarasini nazardan soqit qiladi.

Asar Maqola, 4 bob va xotimadan iborat. Maqola qismi Chingiziy va chig'atoy sultonlarga, xususan, temuriylar va shayboniylar hamda boburiylardan yetishib chiqqan shoirlarga bag'ishlangan. Birinchi bobida o'zi uchrashmagan va bu olamdsan o'tgan ulug'lar keltiriladi. Ikkinchi bobi Nisoriy uchrashgan, lekin bu dunyodan o'tgan ijod ahli haqida hikoya qilinadi. Uchinchi bob esa Nisoriy uchrashgan va zamonasida hayot bo'lgan zotlar haqida. To'rtinchi bob muallif uchrashmagan, lekin zamonasida mashhur bo'lgan Movarounnaxr, Xuroson, Sharqiy Turkiston, Turkiya, Ozarbayjon va Hindistonda yashagan tabarruk kishilar haqidadir. Xotima qismini esa she'r yozgan ota-bobolari va yaqin qarindoshlaridan yetishib chiqqan ijodkorlarga bag'ishlagan.

Xo'ja Hasan Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" asarida ham boburiylarga mansub bo'lgan ijodkorlar xususida so'z boradi, ammo u qadar ko'p ma'lumot va shaxslarni tashkil etmaydi. Xoja Hasan Nisoriy o'z asarining "Maqola ikkinchi ruknining birinchi fasli o'tkinchi jahondan mangulik mulkiga ko'chgan chig'atoy sultonlari zikrida" deb nomlangan qismida boburiy ijodkorlarni keltirib o'tadi. Humoyun Mirzo haqidagi bo'lim "Hazrat Muhammad Humoyun podshoh g'oziy bin Muhammad Bobur podshoh g'oziyning muqaddas yodi" deya u haqidagi ma'lumotlar keltiriladi. "Yulduzlar sonicha sipohli bu podshohning yoqimtoy zotida eng oliy sifatlar mujassam edi. Jahonbonliq ishlarining ko'pligiga qaramay ilm tahsili va suxandonlik mashg'ulotini ham tark etmas, hamda bade' so'zlari fasohat va balog'atda yuqori darajaga ega edi. Shirin nutqida "so'zning yaxshisi qisqasi va dalillisidir" mazmuniga ko'ra oz so'z bilan ko'p fikrni bayon qilardi, uzundan-uzoq ma'nilarni inshoda ravo ko'rmasdi,"- deb Humoyun Mirzo haqida ma'lumot beriladi hamda uning baytidan keltiriladi. Xo'ja Hasan tazkirasidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Humoyun Mirzo nozik didli ijodkor ekanligini yozgan misralar ham isbot etib turadi. Masalan, uning bir baytida uzun so'z misoli uzun kiyimga qiyos qilinadi hamda uzun kiyim insonni harakatlanishiga qanchalar xalaqit bersa, so'zning uzuni ham odamga shunchalar noqulaylik tug'dirishini bayon qilganligi ma'lum bo'ladi. Humoyun Mirzo ham boshqa ma'rifatli hukmdorlar singari o'z atrofida she'r ahlini to'plab she'r majlislari tashkil qilganligi haqida Xo'ja hasan Nisoriy alohida e'tirof etilgan ma'lumotlarni keltirgan.

"Goho qalb quvonchi uchun she'r va shuaroga ko'ngil berib, she'r ahlini o'z oliy majlisining qatnashchisi bo'lishga undardi. Va bu durga to'la matla' uning gavhar sochuvchi guftoridandir. Abyot:

1.Zi g'ussa g'uncha sifat tah ba tah dilam xun ast,

---

[1] Бекжонов И. Ҳасанхўжа Нисорийнинг "Музаккири аҳбоб" тазкираси ва XVI аср ўзбек адабиёти. Диссертация. С.55

[2] Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ki bovuchudi yake nisbati dunyo chun ast.
2. Hargiz nakunam yodi tu to zor nagiryam,
Kam yod kunam az tu ki bisyor nagiryam.

(Mazmuni: 1. G'ussadan dilim g'uncha sifat qat-qat qondir, birinchi qati yetmaganday, ikkinchisi ham shunchadir. 2. Seni zor-zor yig'latmaguncha hech eslaolmayman, ko'p yig'lamayin deb seni kam eslayman)."[3] Biz keltirilgan birinchi baytda Humoyun Mirzo ijodiga Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining neqadar ta'siri kuchli ekanligini sezishimiz qiyin emas, albatta. Ushbu bayt Zahiriddin Muhammad Boburning "Mening ko'nglumki…" deb boshlanuvchi g'azaliga hamohangligi mavjud.

Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur.[4]

Asarda Komron Mirzo haqida ham ma'lumot keltiriladi hamda u dinning himoyachisi ekanligiga alohida urg'u beriladi. Komron Mirzoning o'tkir soyosatchi, adolatparvar podshoh bo'lganligini u bo'layotgan jarayonlarning, aniqrog'i nohaqliklarning asl ildizi qayerda ekanligini ayovsiz e'tirof etganligidan sezishimiz qiyin emas. Mana uning ijodidan bayt:

"Ba xud purs faryodi mazlumro,
Judo soz az ankabin mumro.
Ba devon maandoz faryodi u,
Ki shoyad zi devon buvad dodi u?"[5]

Bu o'rinda ijodkor tomonidan aytilayotgan fikrlar yer yuzidagi barcha rahbarlik lavozimida faoliyat yuritayotgan kishilar uchun dasturilamal vazifasini o'taydi desak sira mubolag'a bo'lmaydi. Boisi xalqning ma'lum bir qismi mazlum holga kelishiga bosh sababchi sifatida devonda faoliyat yuritayotgan shaxslar ko'rsatilyapti. Komron Mirzo ijodida ham biz Zahiriddin Muhammad Bobur ta'siri yuqori darjada ekanligini e'tirof etmay ilojimiz yo'q. Zahiriddin Muhammad Bobur bilan taniqli tarixshunos, "Makorim ul-axloq" asarining muallifi bo'lmish Xondamir o'rtasida "Boburnoma"ning yozilishi xususida so'z ketganda tarixchi Xondamir Boburga "meni chil-chil sindirdingiz" deya "Boburnoma"da asl holicha keltirilgan voqealarga urg'u bergan. Darhaqiqat, boburiylarning boburiyligi shundaki ular shoh sifatida ham shoir sifatida ham haqiqatni yozishdan bo'yin tovlamaydilar. Komron Mirzo ham Bobur kabi bo'lib davlatni idora qilgan hamda jamiyatda yuz berayotgan nohaqliklarning asl sabablarini ochib tashlashdan sira cho'chimagan. Komron Mirzo faqat ijtimoiy mavzuga aloqador asarlar yaratib qolmagan, balki oshiqona g'azal va baytlar ham bitgan. U suyukli mahbubaga moh deya murojaat qilgan o'rinlar ham o'z she'rlarida aks etgan.

Xoja Hasan Nisoriy tazkirasida keltirilgan boburiy ijodkorlardan yana biri Mirzo Askariydir. Mirzo Askariy ijodidan bir g'azal mazmuni bilan keltirilgan. Bu g'azal shu jumladandir. G'azal:

To kard Xudo ruzi man vodii g'amro,
Dar ishq salohast arabrovu ajamro.
Majnunchu nazar kard sui noqai Layli,
Az didani u kard faromush alamro.[6]"

---

[3] Ҳасанхўжа Нисорийнинг Музаккири аҳбоб тазкираси С.57

[4] https://tafakkur.net/mening-konglumki/zahiriddin-muhammad-bobur.uz

[5] Ҳасанхўжа Нисорийнинг "Музаккири аҳбоб" тазкираси. С.60

[6] Ҳасанхўжа Нисорийнинг "Музаккири аҳбоб" тазкираси. С.64

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

She'rdan ma'lum bo'ladiki, Mirzo Askariy ham haqiqiy ishqni kuylagan ijodkorlardan biri sanaladi. Ishq yo'lida chekayotgan dardlarining sababini taqdiri azaldan deb biladi va ishq yo'lida har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishga tayyor ekanligini ma'lum qiladi. O'z taqdirini Majnun taqdiri bilan tutash ekanligini ham e'tirof etib o'tadi. Bu baytlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Mirzo Askariy o'zigacha yaratilgan ijodkorlar ijodidan adabiyotshunos sifatida yaxshigina xabardor bo'lgan hamda tasavvuf ilmi bilan ham yaqindan tanishib chiqqanligi ma'lum bo'ladi. U ishqni kuylaydi kuylaganda ham haqiqiy ishqni kuylagani shundan dalolatdir. Mirzo Askariy qalamiga mansub bo'lgan ushbu g'azalda Hazrat Alisher Navoiy asarlarining ta'siri namoyon bo'lib turibdi.

Tazkirada keltirilgan boburiy ijodkorlardan yana biri Muhammad Hindoldir. Muhammad Hindol o'z davrining bilimdon kishilaridan sanalgan. Mavjud kitoblarni ko'paytirish va to'plash ishiga ham boshchilik qilgan. U o'z atrofida ilm-fan ahlini to'plagan. Ma'rifat va donish ahliga mansub bo'lgan kishilarni har tomonlama ilm egallashi hamda erkin ijod qilishi uchun o'z zamonasi talablaridan kelib chiqqan holda shart-sharoitlar yaratib bergan. U bir baytda askarlar ruhiy olami haqida to'xtalib, jang qilish, hujum uyushtirish shiddatidan qaytsa tarqatib yuborish kerakligini ta'kidlagan va u ayni bir tarixiy real voqeadan kelib chiqib shunday yozgan:

Raxnagari mulk safarkanda beh,
Lashkari badahd parokanda beh.[7]

Hasanxo'ja Nisoriy keltigan ma'lumotga qaraganda Muhammad Hindol ruboiyning go'zal namunalarini yaratgan ijodkorlardan bo'lgan. "Yaxshi ta'bi bor edi. Ushbu ruboiyni yaxshi aytgan.

Zion qatrai shabnam ki nasimi sahari,
Az zabr judo kunad ba sad hiylagari.
To ba ruxi gul chekonad, ey rashki pari,
Haqqo ki hazor bor pokizataroy.[8]

Yorni ta'riflar ekan ijodkor uni shabnam qatrasidan ham tiniq ekanligini ta'kidlaydi. Bizga ma'lumki, tongda o'simliklarga shabnam tushadi va u nihoyatda tiniq bo'ladi. Lirik qahramon bu o'rinda mubolag'a san'atidan unumli va o'rinli foydalangan holda ma'shuqasining tiniqligi oldida shabnamning qatrasidagi tiniqlik hech gap emas demoqda.

Asarda jami 288 shoir va adib haqida ma'lumot berilgan. Asar adabiyot nazariyasi, xususan, she'riyat masalalari haqida, 16-asr Movarounnahr, Xuroson va Hindiston kabi o'lkalar adabiyoti, madaniyati, tarixi va ijtimoiy tafakkuri haqida ma'lumotlar olishda muhim manba bo'la oladi. Undagi ma'lumotlarning aniq va noyobligi mazkur tazkiraning ilmiy ahamiyatini yanada yuksaltiradi.

Asarning dunyo qo'lyozma xazinalarida 14 nusxasi mavjud. 1969 yili Pokistonda 1 ta Angliya va 3 ta Hindiston nusxasi asosida tazkiraning ilmiy-tanqidiy matni ham tuzilgan. Biroq, asar shu vaqtgacha boshqa biron tilga tarjima qilinmagan. O'zbek tiliga Ismoil Bekjon tarjima qilgan (1993). Ilk tarjimani Ismoil Bekjonov tazkiraning muallif hayot payti ko'chirilgan 5 ta toshkent qo'lyozma nusxalari asosida amalga oshirgan. Qo'lyozma nusxalari O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi (inv. №4282, 1438, 4374, 7760). Xullas, Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» tazkirasi XVI asr O'rta Osiyo va Hindiston, Xuroson kabi o'lkalar adabiyoti vakillari ijodi hamda o'sha davr adabiyotini o'z ichiga olgan muhim adabiy manbadir.

[7] Ushbu manba.C.65

[8] Ushbu manba 65-bet

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бекжонов И. Ҳасанхўжа Нисорийнинг "Музаккири аҳбоб" тазкираси ва XVI аср ўзбек адабиёти. Диссертация. С.55
2. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи
3. Ҳасанхўжа Нисорийнинг Музаккири аҳбоб тазкираси С.57
4. https://tafakkur.net/mening-konglumki/zahiriddin-muhammad-bobur.uz
5. Internet saytlari
6. Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri Ahbob" tazkirasi qo'lyozma nusxalari (Inv. №4282, 1438, 4374, 7760).

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.